

SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-iyun

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
4 446,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
126,2 %

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
965,9 mlrd. so'm

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:
3 480,6 mlrd. so'm

Joriy davrda 4 446,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 73,4 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 26,6 % moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
328,8 mlrd. so'm

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:
61,3 mlrd. so'm

Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:
82,7 mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
493,1 mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :
705,4 mlrd. so'm

Korxona mablag'lari:
478,0 mlrd. so'm


Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
353,8 mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
1 943,4 mlrd. so'm

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 43,7 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 15,9 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 11,1 %, korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari 10,7 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 8,0 %, Respublika byudjeti 7,4 %, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 1,4 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1,8 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	4 446,5	126,2	100,0
Respublika byudjeti	328,8	112,5	7,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	61,3	-	1,4
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	82,7	198,0	1,8
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	493,1	149,6	11,1
Korxona mablag'lari	478,0	113,4	10,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	353,8	105,0	8,0
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	1 943,4	136,4	43,7
Aholi mablag'lari	705,4	108,3	15,9



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Mird. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Surxondaryo	4 446,5	126,2	100,0
Oltinsoy	113,7	69,3	2,5
Angor	182,1	114,9	4,1
Bandixon	38,3	253,6	0,9
Boysun	840,5	226,7	18,9
Denov	559,8	150,9	12,6
Jarqo'rg'on	171,1	91,7	3,8
Qiziriq	110,1	106,3	2,5
Qumqo'rg'on	269,9	225,3	6,1
Muzrabot	153,8	142,2	3,5
Sariosiyo	463,3	86,2	10,4
Termiz	416,4	109,2	9,4
Uzun	68,6	71,8	1,5
Sherobod	288,5	117,6	6,5
Sho'rchi	108,0	84,2	2,4
Termiz sh.	662,4	123,0	14,9


Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Bandixon tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 253,6 %, Boysun tumanida 226,7 %, Qumqo'rg'on tumanida 225,3 %, Denov tumanida 150,9 % va Termiz shahrida 123,0 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

jamiga nisbatan, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning oʼzlashtirilgan hajmi boʼyicha hududlar kesimida Boysun tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,9 % oʼzlashtirildi.

Shuningdek Boysun tumanidan keyingi oʼrinda Denov tumani – 12,6 % ni tashkil etmoqda.

Termiz shahri va Sariosiyo tumanlarida ushbu koʼrsatkich mos ravishda – 14,9 va 10,4 % ni tashkil etdi.


Termiz hamda Sherobod tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi – 9,5 va 6,5 % ni tashkil etgan boʼlsa, Bandixon tumanida bu koʼrsatkich boʼyicha eng kami boʼldi – 0,9 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari boʼyicha – 2 002,3 mlrd. soʼm oʼzlashtirilgan boʼlsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 1 889,7 mlrd. soʼm va boshqa xarajatlarga - 554,5 mlrd. soʼm oʼzlashtirildi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 2 2620,8 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 58,9 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 1 014,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 22,8 % ini tashkil etdi. Qolgan 18,3 %, yani - 811,1 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 833,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,7 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish - 124,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,5 %);
- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish – 325,7 mlrd. so'm (7,3 %);

Tashish va saqlashda - 359,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,1 % o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar			Investitsiya-lar	Kafolatlan-magan kreditlar
Surxondaryo	2 436,5	1 171,4	1 265,1	1 158,0	785,4	13,4	772,0
Termiz sh. tumanlar:	227,3	128,5	98,8	115,1	89,3	13,4	75,9
Oltinsoy	32,8	1,5	31,3	1,5	31,3	-	31,3
Angor	110,3	14,2	96,1	14,2	73,7	-	73,7
Bandixon	3,7	3,7	-	3,7	-	-	-
Boysun	751,8	650,3	101,5	650,3	101,5	-	101,5
Denov	279,0	45,3	233,7	45,3	189,5	-	189,5
Jarqo'rg'on	8,7	-	8,7	-	8,7	-	8,7
Qiziriq	62,1	33,7	28,4	33,7	28,4	-	28,4
Qumqo'rg'on	177,1	1,8	175,3	1,8	30,3	-	30,3
Muzrabot	50,2	13,4	36,8	13,4	36,8	-	36,8
Sariosiyo	294,6	86,7	207,9	86,7	-	-	-
Termiz	216,2	25,3	190,9	25,3	182,2	-	182,2
Uzun	24,2	24,2	-	24,2	-	-	-
Sherobod	149,7	94,0	55,7	94,0	13,7	-	13,7
Sho'rchi	48,8	48,8	-	48,8	-	-	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Jamiga nisbatan, % da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog'-kon sanoati o'zlashtirilib, u 767,4 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 31,5 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni qayta ishslash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 715,3 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 29,4 % o'zlashtirildi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha - 257,5 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha - 197,7 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.

Ishga tushirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 629,2 ming kv.m, bo'lgan 3536 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 488,5 ming kv.m bo'lgan 2828 tasi qishloq joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Denov tumanida ishga tushirilgan 101,2 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 16,1 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Jarqo'rg'on va Sariosiyo tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 11,7 va 11,6 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Uzun tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(76) 225-65-59